



6-SHO'BA

GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR VA ZAMONAVIY FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

O'ZBEK KOMEDIYALARIDA IJTIMOIY MUHIT VA SHAXS TALQINI

(PhD), dots. Jo'rayev Murodulla Alishboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy muhit va shaxs talqini Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasi misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Komediya, ijtimoiy muhit, shaxs, talqin, komik obraz, xarakter, qahramon.

"Temir xotin" komediyasida XX asrning 60-70-yillaridagi sobiq sho'rolarning nopok siyosati natijasida ayanchli holga kelib qolgan o'zbek xalqi hayoti, o'zbek ayollarining achinarli qismati komik tarzda o'z aksini topgan.

Muallif ta'kidlaganidek: "Qiziq, nega jiddiy, agar u komediya bo'lsa? Yoki nega "komediya", agar u jiddiy bo'lsa? Umuman, inson fojeasi haqida komediya yozish shakkoklik emasmikin? O'ylaymanki, qimmatli o'quvchi bu savollarga asarning o'zidan javob topa oladi."

Hech shubhasiz aytish mumkinki, Qo'chqor obrazi-o'zbek adabiyotida o'ziga xos badiiy kashfiyotdir. Qo'chqor sovet davri adabiyotida zavq bilan qalamga olingan mehnat qahramonlariga parodiya tariqasida yaratilgan. U-qizil imperiya, totalitar tuzum tarbiyalab etishtirgan "yangi davr farzandi", mustabid hokimiyat munofiqona mafkurasining tirik qurboni.

Sharof Boshbekov ushbu asarida hajviy iboralarni xalq tilidan olib o'z personajlarida mohirona qo'llay olgan. Komediya muallif ayniqsa, personajlar nutqini individuallashtirish jarayonida har bir so'z va iboraning mazmundor, ko'p qirrali, xususan, komik mohiyatli bo'lishiga erishgan. Personajlar nutqining individualligi ularni aniq shaxs timsolida gavdalantiradi. Misol uchun, asar qahramonlaridan biri Olimjonning "progress", "mikroxsena", "kompleks" kabi so'zlarni ishlatishi uning ziyoli shaxs ekanligidan dalolat beradi va bu o'z navbatida personajning o'ziga xosligini ham ta'minlagan. Komediyaning bosh qahramonlaridan biri Qo'chqor hisoblanadi. U asar voqealarini harakatga keltirishda etakchi kuch vazifasini o'tagan. Asar voqealari bevosita Qo'chqor bilan bog'liq tarzda kechadi hamda o'sha davr voqeligi uning hayoti bilan chambarchas bog'langan holda gavdalantirib berilgan.

Ayniqsa, Qo'chqorning o'sha davr qishloq mehnatkashlarida uchrovchi xususiyatlarni o'zida umumlashtirib, aniq shaxs timsolida tasvirlanganligi va janr talabiga muvofiq ozgina bo'rttirib talqin qilinganligi asarning komikligini yanada oshirgan.

Endi bevosita asar voqealariga murojaat qiladigan bo'lsak, asar qahramoni Qo'chqor oddiy qishloq traktorchi, ertadan to qora kechgacha tinmay ishlasada, hech biri ikki bo'lmaydi. O'zi azamat paxtakor bo'lsada na kiyinishi, na ko'rpa-yostig'ini tayini bor, hovli-joyini, turmush tarziniku gapirma ham bo'ladi. Lekin Qo'chqorning o'zi bunday hayot tarzidan hech ham nolimaydi, aksincha, uning o'zi "Nasibangiz menday odam bilan qo'shilgan ekanmi, omdning kelgani shu-da. Qo'chqor aka, desangiz, qishloqning etti yoshidan etmish yoshigacha "ho'-o' ana hovlisi" deydi. Kolxozda obro' yomonmas. Suratimiz necha yildan beri "Hurmat taxtasi"dan tushmaydi. Anavi kuni qarasam, sarg'ayib ham ketibdi. Kelayotganingizda ko'zingiz tushgandir, shundoq idoraning oldida.... Ha-ya.... Xullas, idoraning oldida. Esimni tanibmanki, traktor haydayman. Yomon bo'lganimiz yo'q, birovdan oldin, birovdan keyin deganday.... (hijolat bo'lib). Bir marta, deng, rayondagi bayram namoyishida minbardayam turganman, kattalar bilan. G'alati bo'lar ekan.... Xo'sh deganingizdan bilsak, ikki marta Toshkentgayam borganman. Shaharmisan-shaharda lekin! E, ko'raman degan odamga dunyo keng ekan, Alomatxon! Ana, bitta kolxozchiga bundan ortiq yana nima kerak?...." Deb maqtanib ham qo'yadi. U bundan boshqacha yashashni orzu qila olmaydi, hatto tasavvuriga ham sig'dirmaydi. Chunki Qo'chqor xuddi shunday ruhda tarbiya topgan, shu tarzda yashashga uni o'sha tuzum, o'sha davr mafkurasi majbur qilar edi.

Komediya-dagi yana bir diqqatga sazovor obrazlardan biri bu Alomatxondir. Alomatxon insonga xos to'liq xarakter xususiyatlarga ega emas, chunki u temirdan yasalgan, Olimjonning bir necha yillik mehnatining mahsuli hisoblanadi.

Aynan Alomatxon Qo'chqorning asl turmush tarzi qay ahvolda ekanligini uning yuziga aytadi. Va bu bilan muallif o'zbek xalqining iqtisodiy jihatdan qashshoqligini ta'kidlashi barobarida, uning ma'naviy qiyofasi, tafakkuri ham zaiflashib borayotganligini ko'rsatib berishga harakat qiladi.

Darhaqiqat, o'sha sobiq sho'rolarning eng gullagan 60-70-yillarida xalq hayoti juda yuqori darajada, deb ommaviy axborot vositalarida, turli minbarlarda turib baralla jar solinsada, lekin aslida mahalliy xalqlarning turmush tarzi o'sha minbarlarda maqtaladigan darajada emas edi. Asl haqiqatni aytish uchun esa bir azamat topilmas, topilsada unga yana o'sha siyosiy tuzum, mafkura yalovbardorlari hech qachon yo'l berishmas edi. Bunday mafkuraning temir qoliplarini yorib chiqish uchun esa inson tanasi kamida Alomatxonnikisi kabi temirdan, balki undan ham mustahkamroq bo'lishi lozim edi.

Paxta yakka hokimligi shu qadar yuqori darajaga ko'tarilgan ediki, etti yashardan to etmish yashargacha, erta bahordan kech kuzgacha paxta dalalarida yurt farovonligi uchun mehnat qilishar, lekin buning natijasida yurt farovonligi oshishi o'rniga xalq turmush tarzi yanada qashshoqlashib borardi. Yuqori hosil uchun paxta dalalariga me'yorida ortiq sepilgan turli kimyoviy vositalar, ayniqsa ayollarning salomatligiga juda katta salbiy ta'sir qilar, oqibatda tug'ilajak bolalar nogiron yoki ayollarning umuman bepusht bo'lib qolishiga sabab bo'lar edi.

Muallif paxta siyosatining xuddi shu jihatlari ham g'oyaviy niyati bilan chambarchas bog'lagan holda davr voqeligini aynan tasvirlashga harakat qilgan. Shunga muvofiq tarzda asar voqealarini rivojlantirib boradi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi turli nohaqliklar va illatlarni ham estetik tanqid ostiga oladi.

Alomatxon obrazi muallifning g‘oyaviy maqsadini ro‘yobga chiqarishda asosiy vositalardan biri bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birinchidan, Alomatxon o‘sha tuzum fuqarolari ayta olmagan davr nohaqliklarini baralla ayta oladi. Ikkinchidan, muallif bunday siyosiy tuzumga oddiy odam u yoqda tursin, hatto temir ham dosh bera olmasligini ko‘rsatib bergan.

Tuzumning adolatsizligi, mafkura yalovbardorlarining berahm, beshafqat siyosati oqibatida ezilgan mahalliy xalq davr nohaqliklarini ko‘rib dod solish u yoqda tursin, astagina aytishga ham qurbi etmas, qurbi etadiganiga esa yana o‘sha siyosiy tuzum yo‘l bermagan. Komediyanavis ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bu kabi hodisalarni quyidagicha tasvir etadi:

“Alomat-Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko‘tarib o‘tganingizga xursand bo‘lib yuraverasiz! Majlislarda qo‘l ko‘tarish-u, chapak chalishni bilasiz, boshqa hech baloni hal qilmaysiz! Ko‘pincha o‘sha majlisda nima hal bo‘layotganini ham tushunmaysiz!

Qo‘chqor-(ta’sirlanib). Gapingiz noto‘g‘ri, Alomatxon.... “Hurmat taxtasi”da suratimiz turibdi....

Alomat-Hamma gap shunda-da, nolimaysiz! Ko‘nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan og‘riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku, qo‘lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo‘yishga ham qodir emassiz, Qo‘chqor aka?! Qalbingizning unutilib ketgan, o‘zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo‘rqasiz, uni sezmaslikka olasiz! To‘g‘ri, qadr-qimmatigingiz oshkora haqoratlanganida o‘sha miltillayotgan cho‘g‘ alanga olganday bo‘ladi va siz uni aroq bilan o‘chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko‘zlar bilan qarab, taskin topasiz, lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi!”

Asarda davr fojiasi kulgili yo‘sinda o‘z aksini topgan va shunga muvofiq tarzda komediya syujeti shakllantirilgan. Muallif g‘oyaviy maqsadiga mos hamda hayotiy voqelikdan kelib chiqqan holda xarakterlar tanlaydi. Asar garchi komediya janrida yaratilgan bo‘lsa-da, lekin syujet echimi fojia bilan yakun topgan. Chunki komediyanavis o‘zining badiiy niyatini yanada to‘kisroq ro‘yobga chiqarish uchun ham aynan shunday yo‘l tutgan. Komediyaning dramatik janr sifatida voqelikning turli jabhalarini tasvirlashda shakl vamazmun jihatdan yana bir yangi sifat bilan boyiganligini xuddi shu “Temir xotin” komediyasi misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Dramaturg Mashrab Boboev komediyaning shu kabi o‘ziga xos jozibadorlik xususiyatlariga to‘xtalib, quyidagilarni yozgan edi: “Sharof Boshbekovning ikkinchi asari – “Temir xotin”. U haqiqatan ham talash bo‘lib ketdi. Pesa na bir tarixiy sana, na bir muhim mavzuga bag‘ishlangan. Oddiygina, qishloq hayotidan olib yozilgan, bunday olib qaralganda, uydirmasifat bir komediya.”

Komediya muallifning asosiy g‘oyaviy niyati Qo‘chqorga, uning xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabatida ifodalanadi. Komediyanavis Qo‘chqorning yangi-yangi hayotiy xislatlarini tasvirlar ekan, bu orqali o‘sha jamiyatning ijtimoiy-siyosiy olamini ham ochib berishga intiladi hamda Alomatxon tilidan turmushning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini ochiq-oydin ochib tashlaydi.

Komediya, bizning nazarimizda, yuqorida sanab o‘tilgan yutuqlardan tashqari ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Jumladan, Qumri va Olimjon obrazlarining

xarakter xususiyatlari, ichki dunyosi to'liqroq ochib berilmagan. Agarda ushbu obrazlarning ham ichki olami, xarakterlari to'laqonli tarzda tasvir etib berilganida komediyaning badiiy qimmatini yanada oshgan hamda asarning sahnaviyligi, shuhrati yana ham yuqori darajaga ko'tarilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshbekov Sh. Temir xotin. // Yoshlik jurnali. 1989 yil 5-son 21-bet
2. Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo'ldi? P'esalar.-T: Adabiyot va san'at. 1989 y. 179-bet
3. Boboev M. Kamolotning ona zamini. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1989 yil 17-mart.

MILLIY TA'LIM - TARBIYA JARAYONIDA YOSHLAR AHLOQIY FAZILATLARNI YUKSALTIRISH MEZONLARI

Ortiqov Olim Xamidovich

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

olimortiqtov798@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada globallashtirish sharoitida aholining keng qatlamlarida, ayniqsa yoshlarda milliy g'oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda mafkuraviy-ma'naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi ifodalangan.

Kalit so'zlar: Fan, yangi texnika - texnologiyalar, madaniyat, avlodlar o'giti, mafkuraviy-ma'naviy immunitet, ahloqiy mezonlar, sog'lom avlod, ilm-ma'rifat, ahloqiy fazilatlar.

Buyuk faylasuf Aristotel shunday degan: "Ta'limning ildizlari achchiq, lekin mevasi shirin". Bugungi achchiq mehnatimiz, albatta, kelajakda o'zining shirin mevasini beradi. Globallashtirish davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo e'tibordan qochirmasligimiz lozim. Bu esa o'z navbatida ta'lim, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko'ndalang qo'yimoqda. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi bo'lib qolaveradi. Davrning shiddatli jarayonlar kechayotgan, iqtisodiy va moliyaviy inqiroz davom etayotgan, atrofimizda xavfli mojarolar ro'y berib, "yot madaniyatlar ekspansiya"si bo'y ko'rsatib turgan bir paytda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish, zamonaviy, yetuk kadrlarni tarbiyalash masalalari umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib qolayotganini yana bir marta ta'kidlash o'rinlidir. Bugun ma'naviyat va yoshlarning ahloqiy tarbiyasi haqida so'z borar ekan, bu xaqdagi bilimlarimizni takomillashtirish, dunyoqarashimizni kengaytirish hamda yoshlarni ana shu yo'lda birlashtirish, kamol toptirishda milliy g'oya xususida to'xtalish muhimdir. Chunki taraqqiyot va texnika asri deb atalmish XXI asr yoshlari qalbida ma'naviy boylik, komil inson darajasiga erishish, yurt-u